



АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕДИАТРИЧЕСКОЙ ФАРМАКОЛОГИИ

*Республиканская научная-
практическая конференция*

28 МАРТА, 2023



Google
Scholar



inScience
through time and space



inLibrary



inLibrary.uz



inConference.uz



inScience
through time and space

**ТАШКЕНТСКИЙ ПЕДИАТРИЧЕСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ
ИНСТИТУТ**



PROSTATA BEZI SARATONINI DAVOLASH UCHUN YANGI KOMPOZITSIYA "ANDROFER"NING FARMAKO-TOKSIKOLOGIYASINI O'RGANISH

***Tuxtasheva Visola Farmonovna, Zaxidova Lola Tishayevna,
Aminov Salohiddin Djurayevich, Tursunxodjayeva Firuza Muratovna***
*O'zR FA akad. S.Yu. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti,
visolaft@mail.ru*

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra har yili dunyoda 1,41 mln.dan ortiq bemorlarda prostata kasalligi qayd etilib, ularning 70-80% da patologik jarayon rivojlanadi. Ushbu kasallik asosan erkaklik jinsiy gormonlar ta'sirida yuzaga kelganligi sababli, davolashda gormonoterapiya usullaridan foydalaniladi. Gormonoterapiyaning barcha usullarida yetarlicha no'juya ta'sirlar kuzatilishi sababli, bugungi kunda jahon tajribasida, gormonoterapiyaning turli kombinatsiya usullaridan foydalanib kelinmoqda. Shu sababli tadqiqot ishi prostata bezi saratonini davolash uchun yangi kombinatsiyani o'rganishga bag'ishlangan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida o'sadigan *Ferula tenuisecta* o'simligidan seskviterpen spirtlarni murakkab efirlarini ajratib olish, sinergetik ta'sirni oshirish maqsadida turli kombinatsiyalarni ishlab chiqish, olingan substansiyaning farmakologik va toksikologik xususiyatlari hamda klinik tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: *Ferula tenuisecta* o'simligining ildiz qismidan ajratib olingan seskviterpenli spirtlarning murakkab efirlari yig'indisi asosida olingan ferulen substansiyasining va uning siproteron atsetat bilan kompozitsiyasining androgenga bog'liq organlarga ta'sirini o'rganishdan ibora

Tadqiqotlarning material va uslublari.

Tajribalar, erkak-urg'ochi oq kalamushlar (180-200 g) va erkak-urg'ochi oq sichqonlar (18-20 g), mushuklar (2,5-3,2 kg) da olib borildi. O'rganilgan dori vositalari zond yordamida tajriba hayvonlar oshqozoniga yuborildi. Androfer suvda yaxshi erimaganligi sababli erituvchilar, o'rik yelimi yordamida distillangan suvda eritilib hayvonlar oshqozoniga yuborildi. Nazorat guruhiga mos ravishda o'rik yelimining suvdagi suspenziyasi yuborildi.

Solishtiruv preparatlari sifatida Ferulin va Siproteron atsetatlardan foydalanildi.

Androferning rezorbtiv ta'siri va o'tkir zaharlilik ko'rsatgichlariga ta'sirini o'rganish. Androfer erkak va urg'ochi oq kalamushlarga 180-200g hamda erkak va urg'ochi oq sichqonlarga 500; 1000; 2000; 3000 va 4000 mg/kg larda og'iz orqali